

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI  
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI  
**TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH  
MILLIY AGENTLIGI**



TA'LIM DASTURINI  
MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O'TKAZISH BO'YICHA

# YAKUNIY HISOBOT



**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI**

Davlat oliy ta'lim tashkiloti

**60610500 – Sun'iy intellekt**  
Bakalavriat



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI  
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI  
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI**

**60610500 – Sun'iy intellekt**

**TA'LIM DASTURINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN  
O'TKAZISH BO'YICHA YAKUNIY HISOBOT**

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI**

*(Ekspert komissiyasi xulosasi asosida)*

## EKSPERT KOMISSIYASI TARKIBI



**Rais: ABDUSALOMOV AKMALBEK BOBOMIRZAYEVICH**

**Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot  
texnologiyalari universiteti**

**texnika fanlari doktori (DSc), professor**



**A'zo: AHMED MOHAMED AZIZ ISMAIL**

**Central Asian University**

**falsafa doktori (PhD)**

## 1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

|                                                              |                                                                                                                                     |
|--------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Ariza raqami                                                 | MAO260101                                                                                                                           |
| Xulosa raqami                                                | 821                                                                                                                                 |
| Xulosa sanasi                                                | 26.05.2026                                                                                                                          |
| Ta'lim tashkilotining to'liq nomi                            | "TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI"<br>DAVLAT MUASSASASI                                                                           |
| Tashkilot manzili, litsenziya / identifikatsiya ma'lumotlari | Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy. Litsenziya: № 34/2, 29.01.1992. Guvohnoma: MAS № 0000146, 19.06.2026. |
| Baholangan ta'lim dasturi nomi                               | Sun'iy intellekt                                                                                                                    |
| Yo'nalish / mutaxassislik kodi                               | 60610500                                                                                                                            |
| Akkreditatsiya usuli                                         | masofaviy / joyiga chiqib                                                                                                           |

## 2. HUQUQIY ASOSLAR

### Xulosa tayyorlanishiga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjat:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida" 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom.

### Maxsus davlat akkreditatsiyasi:

O'rta maxsus, kasbiy, oliy ta'limni va oliy ta'limdan keyingi ta'limni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayoni boshlanishidan oldin amalga oshiriladigan jarayon.

### 3. TA'LIM DASTURINING UMUMIY TAVSIFI

|                                                                                                                      |                                                                 |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------|
| <b>1. Ta'lim tashkilotining litsenziya/guvohnomasi:</b><br><i>License/Certificate of Educational Institution:</i>    | № 34/2, 29.01.1992                                              |
| <b>2. Ta'lim tashkilotining turi:</b><br><i>Type of Educational Institution:</i>                                     | Davlat oliy ta'lim tashkiloti                                   |
| <b>3. Ta'lim dasturi kodi va nomi:</b><br><i>Code and Name of Study Programme:</i>                                   | 60610500 – Sun'iy intellekt                                     |
| <b>4. Ta'lim dasturining ingliz tilida nomlanishi:</b><br><i>Name of Study Programme in English:</i>                 | 60610500 – Artificial Intelligence                              |
| <b>5. Ta'lim dasturining rus tilida nomlanishi:</b><br><i>Name of Study Programme in Russian:</i>                    | 60610500 – Искусственный интеллект                              |
| <b>6. Hamkorlikda amalga oshirilishi:</b><br><i>Offered in Cooperation with:</i>                                     | —                                                               |
| <b>7. Ta'lim tili:</b><br><i>Medium of Instruction:</i>                                                              | o'zbek                                                          |
| <b>8. Ta'lim shakli:</b><br><i>Mode of Study:</i>                                                                    | kunduzgi / kechki                                               |
| <b>9. Ta'lim dasturi hajmi:</b><br><i>Study Programme Credits:</i>                                                   | 240 kredit                                                      |
| <b>10. Ta'lim dasturi davomiyligi:</b><br><i>Duration of Study Programme:</i>                                        | 4 yil / 4,5 yil                                                 |
| <b>11. Milliy malaka ramkasidagi darajasi:</b><br><i>Level in National Qualifications Framework:</i>                 | 6-daraja                                                        |
| <b>12. Kvalifikatsiya(lar) nomi:</b><br><i>Qualification Title:</i>                                                  | Sun'iy intellekt bo'yicha muhandis                              |
| <b>13. Qo'shimcha beriladigan kvalifikatsiyalar:</b><br><i>Additional Qualifications Awarded:</i>                    | —                                                               |
| <b>14. Ta'lim dasturi yakunida beriladigan hujjat turi:</b><br><i>Type of Document Issued Upon Completion:</i>       | Davlat namunasidagi diplom                                      |
| <b>15. Ta'lim oluvchilarning me'yoriy miqdori (to'liq davr):</b><br><i>Maximum Number of Students (full period):</i> | 400 nafar                                                       |
| <b>16. Ta'lim dasturini o'qitish manzili:</b><br><i>Address Where the Study Programme is Delivered:</i>              | Toshkent viloyati, Qibray tumani,<br>Universitet ko'chasi, 2-uy |

#### 4. BAHOLASH YO'NALISHLARI VA MEZONLAR BO'YICHA NATIJALAR

Har bir yo'nalish bo'yicha baho (muvofig / muvofig emas) va har bir mezon bo'yicha baho (muvofig / qisman muvofig / muvofig emas) deb baholanadi.

| №         | Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari                                                                                                                                                                                                                         | Muvofiqligi    |
|-----------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------|
| <b>1.</b> | <b>Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash</b>                                                                                                                                                                                                              | <b>Muvofiq</b> |
| 1.1.      | <i>ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi;*</i>                                                                                                                                     | Muvofiq        |
| 1.2.      | <i>ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha 5 yillik istiqbolli rejaning mavjudligi;</i>                                                                                                                               | Muvofiq        |
| 1.3.      | <i>ta'lim dasturi doirasida sifatni ichki ta'minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta'minlangani;</i>                                                                                                      | Muvofiq        |
| 1.4.      | <i>mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalarini aniqlash bo'yicha monitoring tizimining mavjudligi;</i>                                                                                                              | Muvofiq        |
| <b>2.</b> | <b>Ta'lim dasturlari</b>                                                                                                                                                                                                                                      | <b>Muvofiq</b> |
| 2.1.      | <i>manfaatdor tomonlar ishtirokida ta'lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani. Bunda ta'lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, mehnat bozori, davlat ta'lim standarti va milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiqligi;*</i> | Muvofiq        |
| 2.2.      | <i>ta'lim dasturining milliy ta'lim tizimidagi ustuvor yo'nalishlar va xalqaro andozalar asosida ishlab chiqilgani;</i>                                                                                                                                       | Muvofiq        |
| 2.3.      | <i>ta'lim dasturining davomiyligi, fanlarning uzviyligi va uzluksizligi ta'minlangani;</i>                                                                                                                                                                    | Muvofiq        |
| <b>3.</b> | <b>O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash</b>                                                                                                                                                                                          | <b>Muvofiq</b> |
| 3.1.      | <i>ishchi o'quv reja va dasturlarining belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilgani;*</i>                                                                                                                                                                 | Muvofiq        |
| 3.2.      | <i>o'quv jarayonining ta'lim dasturida belgilangan o'quv natijalariga erishishga yo'naltirilgani;*</i>                                                                                                                                                        | Muvofiq        |
| 3.3.      | <i>o'quv jarayonining doimiy baholab borilishi va takomillashtirishga qaratilgani;</i>                                                                                                                                                                        | Muvofiq        |
| 3.5.      | <i>ta'lim dasturi doirasida talabalar bilimining shaffof va xolis baholanishi, baholash jarayonlarining o'quv natijalariga muvofiqligi;</i>                                                                                                                   | Muvofiq        |
| 3.6.      | <i>talabalarning baholash natijalari bo'yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi;</i>                                                                                                                                                            | Muvofiq        |
| 3.7.      | <i>ta'lim dasturida akademik halollik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi;*</i>                                                                                                           | Muvofiq        |

| №         | Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari                                                                                                                                                                                                                                                             | Muvofiqligi    |
|-----------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------|
| <b>4.</b> | <b>Talabalar faoliyati</b>                                                                                                                                                                                                                                                                        | <b>Muvofiq</b> |
| 4.1.      | <i>ta'lim dasturi bo'yicha qabul talablari aniq belgilangani, o'qishga qabul qilish shaffof tarzda yo'lga qo'yilgani;</i>                                                                                                                                                                         | Muvofiq        |
| 4.2.      | <i>qabul parametrlarining ta'lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi;*</i>                                                                                                                                                                                                   | Muvofiq        |
| 4.3.      | <i>talabalarining o'qishini ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish (qoldirish), o'qishdan chetlashtirish va o'qishini qayta tiklash tartibining belgilangani;*</i>                                                                                                                                  | Muvofiq        |
| 4.4.      | <i>talabalarni qo'llab-quvvatlash va ularga maslahat berish mexanizmlarining mavjudligi;</i>                                                                                                                                                                                                      | Muvofiq        |
| <b>5.</b> | <b>Inson resurslari</b>                                                                                                                                                                                                                                                                           | <b>Muvofiq</b> |
| 5.1.      | <i>ta'lim dasturi uchun belgilangan me'yorlarga muvofiq pedagog kadrlar, shuningdek, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar mavjudligi hamda ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga mosligi;*</i>                                  | Muvofiq        |
| 5.3.      | <i>yangi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejadagi fanlarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejaning mavjudligi;*</i>                                                                                              | Muvofiq        |
| 5.4.      | <i>kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining mavjudligi;</i>                                                                                                                                                      | Muvofiq        |
| <b>6.</b> | <b>Moddiy-texnik ta'minot</b>                                                                                                                                                                                                                                                                     | <b>Muvofiq</b> |
| 6.1.      | <i>ta'lim dasturini amalga oshirish uchun amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari va kurs ishi (loyiha)ni bajarish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalarning mavjudligi hamda metodik qo'llanma (ko'rsatma)lar bilan ta'minlangani;*</i> | Muvofiq        |
| 6.2.      | <i>fanlar kesimida o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, elektron ta'lim resurslari bilan belgilangan talablarga muvofiq ta'minlangani;*</i>                                                                                                                                                        | Muvofiq        |
| 6.3.      | <i>o'quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxona (poligon)larning talabalar sonidan kelib chiqib, ta'lim dasturlariga mos jihozlar va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangani hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilingani;*</i>                                                    | Muvofiq        |
| 6.4.      | <i>inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani;</i>                                                                                                  | Muvofiq        |
| 6.5.      | <i>axborot-resurs markazining (kutubxonaning) ta'lim dasturlariga mos o'quv adabiyotlari, kompyuterlar bilan ta'minlangani, o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi;*</i>                                                                                                                 | Muvofiq        |

| No   | Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari                                                                                                                        | Muvofiqligi |
|------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------|
| 6.6. | <i>raqamli ta'lim muhiti yaratilgani (LMS, wi-fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta'lim imkoniyatlari);</i>                                | Muvofiq     |
| 6.7. | <i>ta'lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, maxsus xona yoki bino va inshootlarining (sport zali, stadion, musiqa xonasi va boshqalarning) mavjudligi.</i> | Muvofiq     |

## 5. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA XULOSALAR

### 1-bob. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi

Tashqi baholash natijalariga ko'ra, 60610500 – "Sun'iy intellekt" ta'lim dasturi bo'yicha tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash tizimi umumiy jihatdan shakllangan hamda amaldagi talablar asosida faoliyat yuritayotgani kuzatildi. Ta'lim dasturini amalga oshirish uchun mas'ul tarkibiy tuzilma mavjud bo'lib, uning vakolatlari, vazifalari va funksiyalari normativ hujjatlar bilan belgilangan. Universitetning strategik maqsadlari bilan uyg'unlashgan 2026–2030-yillarga mo'ljallangan istiqbolli rivojlantirish rejasi ishlab chiqilgan bo'lib, unda ta'lim sifati, kadrlar salohiyati, raqamlashtirish, xalqaro hamkorlik va moliyaviy barqarorlik kabi ustuvor yo'nalishlar qamrab olingan. Shu bilan birga, ichki sifatni ta'minlash bo'yicha institutsional mexanizmlar, jumladan monitoring, tahlil, qayta ko'rib chiqish va manfaatdor tomonlar fikrini inobatga olish tizimi amaliyotga joriy etilgan. Ta'lim dasturining sifatini uzluksiz takomillashtirish PDCA tamoyili asosida yo'lga qo'yilgan bo'lib, talabalar, professor-o'qituvchilar, ish beruvchilar va bitiruvchilar ishtirokida fikr-mulohazalar yig'ish mexanizmi mavjud. Mehnat bozori ehtiyojlari, ta'lim talablari va ilmiy-tadqiqot tendensiyalarini monitoring qilish tizimi ham shakllangan bo'lib, yig'ilgan ma'lumotlar ta'lim dasturini takomillashtirishda qo'llanilmoqda. Biroq ayrim takomillashtirishni talab qiluvchi jihatlar ham aniqlandi. Xususan, sun'iy intellekt yo'nalishiga xos zamonaviy moddiy-texnik infratuzilma (GPU serverlar, maxsus laboratoriyalar, litsenziyalangan dasturiy vositalar) bo'yicha aniq ko'rsatkichlar yetarlicha ochib berilmagan. Shuningdek, moliyaviy resurslar, inson kapitali salohiyati va infratuzilma rivojlanishi bo'yicha miqdoriy KPI ko'rsatkichlarni yanada aniqlashtirish, ayrim vazifalar bo'yicha individual mas'uliyatni kuchaytirish maqsadga muvofiqdir. Umuman olganda, 1-bob bo'yicha ta'lim dasturining tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash tizimi talab darajasida shakllangan, strategik boshqaruv va ichki sifat nazorati mexanizmlari mavjud. Mavjud

kamchiliklar asosan tizimni yanada kuchaytirish va dalillilik bazasini mustahkamlash bilan bog'liq bo'lib, ular bartaraf etilganda ta'lim dasturining samaradorligi va raqobatbardoshligi yanada oshadi.

## **2-bob. Ta'lim dasturlari yo'nalishi**

60610500 – "Sun'iy intellekt" ta'lim dasturi bo'yicha ta'lim dasturlarini shakllantirish jarayoni umumiy jihatdan amaldagi me'yoriy talablar asosida tashkil etilgan hamda ta'lim dasturining maqsadlari, o'quv natijalari va kompetensiyalari zamonaviy ta'lim talablariga mos ravishda belgilangan. Ta'lim dasturi davlat ta'lim standartlari, Milliy malakalar ramkasi va malaka talablari asosida ishlab chiqilgan bo'lib, bakalavriat bosqichi uchun belgilangan 240 kreditli kredit-modul tizimiga mos ravishda shakllantirilgan. Fanlar tarkibi fundamental, umumkasbiy va ixtisoslik kompetensiyalarini bosqichma-bosqich shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lib, dastur mazmunida sun'iy intellekt, mashinali o'qitish, neyron tarmoqlar, kompyuterli ko'rish va boshqa zamonaviy yo'nalishlar qamrab olingan. Shuningdek, ta'lim dasturida nazariy va amaliy ta'lim komponentlari o'rtasida mantiqiy uzviylik ta'minlangan, fanlar ketma-ketligi talabalarning bilim va ko'nikmalarini izchil rivojlantirishga xizmat qiladi. Mashg'ulot turlari (ma'ruza, amaliy, laboratoriya, mustaqil ta'lim) ta'lim dasturining mazmuniga mos ravishda oqilona taqsimlangan bo'lib, bitiruvchilarning mehnat bozori uchun zarur kasbiy kompetensiyalarni egallashiga xizmat qiladi. Ta'lim dasturi mamlakatning raqamli transformatsiya siyosati hamda sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarga mos keladi. Biroq ayrim jihatlar takomillashtirishni talab qiladi. Xususan, ta'lim dasturini ishlab chiqish va tasdiqlash jarayonida manfaatdor tomonlar ishtiroki bo'yicha aniq hujjatlashtirilgan dalillarni kuchaytirish, ish beruvchilar va talabalar takliflari asosida kiritilgan o'zgarishlarni yanada ochiqroq aks ettirish maqsadga muvofiq. Shuningdek, xalqaro ta'lim standartlari (masalan, ACM/IEEE, ECTS yoki boshqa xalqaro benchmarking mezonlari) bilan rasmiy solishtirma tahlil va moslik xaritalarini ishlab chiqish zarur. Fanlar va umumiy o'quv natijalari o'rtasidagi mapping matriksalarini shakllantirish ham dastur sifatini yanada kuchaytiradi. Bundan tashqari, ilmiy-tadqiqot komponentini, ayniqsa capstone project, amaliy AI loyihalari va sanoat integratsiyasi orqali yanada tizimli ravishda kuchaytirish tavsiya etiladi. 2-bob bo'yicha ta'lim dasturi mazmuni, tuzilmasi va akademik mantiqiyligi jihatidan talab darajasida shakllangan, mehnat bozori ehtiyojlariga mos zamonaviy kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan.

Aniqlangan kamchiliklar asosan xalqaro standartlarga moslikni hujjatlashtirish, manfaatdor tomonlar ishtirokini kuchaytirish va amaliy-ilmiy komponentlarni chuqurlashtirish bilan bog'liq bo'lib, ular bartaraf etilganda ta'lim dasturining sifati va xalqaro raqobatbardoshligi yanada oshadi.

### **3-bob. O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash yo'nalishi**

60610500 – "Sun'iy intellekt" ta'lim yo'nalishi bo'yicha o'quv jarayonini tashkil etish hamda o'quv natijalarini baholash tizimi amaldagi normativ-huquqiy talablar asosida shakllantirilgan va umumiy jihatdan samarali faoliyat yuritmoqda. Ishchi o'quv reja, fan dasturlari (sillabuslar) hamda baholash mezonlari davlat ta'lim standartlari, Milliy malakalar ramkasi, malaka talablari va kredit-modul tizimi asosida ishlab chiqilgan bo'lib, ta'lim dasturining maqsadlari va kutilgan o'quv natijalari bilan uyg'unlikda tashkil etilgan. O'quv jarayonida nazariy bilimlar, amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya ishlari va mustaqil ta'lim komponentlari o'zaro integratsiyalashgan holda yo'lga qo'yilgan. Shuningdek, fanlar bo'yicha baholash mezonlari aniq belgilangan bo'lib, talabalar bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini baholashda shaffoflik, adolatlilik va obyektivlik tamoyillari ta'minlangan. Baholash jarayonlari universitetning akademik qoidalarini va HEMIS axborot tizimi orqali monitoring qilinishi, apellyatsiya mexanizmlarining mavjudligi ham ta'lim sifatini nazorat qilish tizimining muhim jihatlaridan biridir. O'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqishda ish beruvchilar, professor-o'qituvchilar hamda soha mutaxassisleri ishtiroki ta'minlangan bo'lib, bu ta'lim mazmunining mehnat bozori ehtiyojlariga mosligini kuchaytiradi. Biroq ayrim takomillashtirishga muhtoj jihatlar ham mavjud. Xususan, talabalar ishtiroki asosida o'quv reja va fan dasturlariga kiritilgan konkret o'zgarishlar bo'yicha dalillarni yanada aniqroq hujjatlashtirish maqsadga muvofiq. Shuningdek, fanlar kesimida o'quv natijalari va dastur darajasidagi umumiy kompetensiyalar o'rtasidagi mapping (moslik) matriksalarini yanada tizimli shakllantirish zarur. Xalqaro ta'lim standartlari va xorijiy tajribalarni fan dasturlariga integratsiya qilish bo'yicha yondashuv mavjud bo'lsa-da, bu boradagi hujjatlashtirilgan benchmarking va versiya nazorati mexanizmlarini kuchaytirish tavsiya etiladi. Sun'iy intellekt kabi amaliy yo'nalish uchun loyiha asosidagi baholash, amaliy case-study va real sanoat muammolariga yo'naltirilgan topshiriqlar ulushini oshirish ham ta'lim samaradorligini yanada kuchaytiradi. 3-bob bo'yicha o'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash tizimi belgilangan talablar darajasida shakllangan, ta'lim sifati va natijadorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi

samarali mexanizmlar mavjud. Aniqlangan kamchiliklar asosan hujjatlashtirish, xalqaro benchmarking va amaliy baholash komponentlarini yanada kuchaytirish bilan bog'liq bo'lib, ularni bartaraf etish ta'lim dasturining sifatini va bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

#### **4-bob. Talabalar faoliyati yo'nalishi**

60610500 – "Sun'iy intellekt" ta'lim yo'nalishida talabalar faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ularning akademik rivojlanishi va ta'lim jarayonidagi ishtirokini ta'minlash bo'yicha zarur mexanizmlar shakllantirilgan. Talabalar uchun ta'lim resurslari, akademik qoidalar, baholash tizimi va amaliy rivojlanish imkoniyatlari yaratilgan. Shu bilan birga, talabalarni ilmiy faoliyat, amaliy loyihalar, sertifikatlash va kasbiy rivojlanish jarayonlariga jalb etish bo'yicha ijobiy ishlar olib borilmoqda. Biroq talabalar fikrlari asosida amalga oshirilgan o'zgarishlarni hujjatlashtirish, xalqaro akademik almashinuv va sanoat bilan integratsiyalashgan amaliy faoliyatlarni kengaytirish maqsadga muvofiq. 4-bob bo'yicha talabalar faoliyatini tashkil etish tizimi talab darajasida shakllangan bo'lib, mavjud takomillashtirishlar amalga oshirilganda ta'lim dasturining samaradorligi yanada oshadi.

#### **5-bob. Inson resurslari yo'nalishi**

Mazkur yo'nalish bo'yicha tahlil shuni ko'rsatdiki, ta'lim dasturini amalga oshirish uchun professor-o'qituvchilar tarkibi shakllantirilgan va o'quv jarayonini tashkil etish uchun zarur kadrlar bazasi mavjud. Professor-o'qituvchilarning ilmiy-pedagogik faoliyatini qo'llab-quvvatlash, malaka oshirish hamda ta'lim sifatini ta'minlash bo'yicha muayyan ishlar yo'lga qo'yilgan. Shu bilan birga, "Sun'iy intellekt" kabi tez rivojlanayotgan yo'nalish uchun aynan soha bo'yicha chuqur amaliy tajribaga ega mutaxassislar salohiyatini yanada kuchaytirish zarur. Xususan, AI, machine learning va data science yo'nalishlarida xalqaro tajribaga ega mutaxassislarni jalb etish, amaliy sanoat tajribasiga ega ekspertlar ishtirokini kengaytirish hamda professor-o'qituvchilarning zamonaviy texnologiyalar bo'yicha malakasini muntazam oshirib borish maqsadga muvofiq. Umuman, inson resurslari bo'yicha asosiy tizim mavjud, biroq yo'nalishning innovatsion xususiyatidan kelib chiqib, kadrlar salohiyatini sifat jihatdan yanada mustahkamlash ta'lim dasturi samaradorligini oshiradi.

#### **6-bob. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi**

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur moddiy-texnik baza umumiy jihatdan shakllantirilgan hamda o'quv jarayonini tashkil etish uchun asosiy infratuzilma mavjud. Kompyuter sinflari, o'quv xonalari va ta'lim

resurslari talabalarining nazariy hamda amaliy tayyorgarligini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Biroq "Sun'iy intellekt" yo'nalishining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda, zamonaviy yuqori unumdor texnik vositalar, maxsus AI laboratoriyalari, GPU serverlar, litsenziyalangan dasturiy platformalar va amaliy tadqiqot infratuzilmasini yanada rivojlantirish zarur. Ayniqsa, ta'lim jarayonini real sanoat va innovatsion muhitga yaqinlashtirish uchun moddiy-texnik bazani kuchaytirish muhim hisoblanadi. Umuman olganda, mavjud infratuzilma ta'lim dasturini amalga oshirish uchun yetarli asos yaratadi, biroq yo'nalishning zamonaviy texnologik talablari nuqtayi nazaridan uni bosqichma-bosqich takomillashtirish ta'lim sifatini sezilarli oshiradi. Yakuniy xulosa Baholash natijalariga ko'ra, 60610500 – "Sun'iy intellekt" ta'lim dasturi bo'yicha taqdim etilgan hujjatlar, o'quv-uslubiy materiallar, tashkiliy boshqaruv mexanizmlari hamda mavjud infratuzilma kompleks tahlil qilindi. Baholash davomida ta'lim dasturining tashkiliy-boshqaruv tizimi, ichki sifatni ta'minlash mexanizmlari, ta'lim dasturi mazmuni, o'quv jarayonini tashkil etish, talabalar faoliyatini qo'llab-quvvatlash, inson resurslari salohiyati hamda moddiy-texnik ta'minot holati belgilangan mezonlar asosida o'rganildi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur institutsional asoslar yaratilgan, strategik rivojlantirish rejalari ishlab chiqilgan hamda ichki sifatni monitoring qilish va takomillashtirish mexanizmlari yo'lga qo'yilgan. Ta'lim dasturi mazmuni davlat ta'lim standartlari va milliy malaka talablariga mos shakllantirilgan bo'lib, zamonaviy sun'iy intellekt yo'nalishidagi asosiy kompetensiyalarni qamrab oladi. O'quv jarayonida nazariy va amaliy komponentlar o'rtasida mantiqiy uzviylik ta'minlangan, talabalar uchun akademik va kasbiy rivojlanish imkoniyatlari yaratilgan. Shu bilan birga, ayrim takomillashtirishni talab qiluvchi jihatlar ham aniqlandi. Jumladan, xalqaro standartlar bilan moslikni hujjatlantirish, fanlar va o'quv natijalari o'rtasidagi mapping tizimini kuchaytirish, talabalar va ish beruvchilar ishtiroki asosida kiritilgan o'zgarishlarni yanada aniqroq aks ettirish, sun'iy intellekt yo'nalishiga mos ixtisoslashgan professor-o'qituvchilar salohiyatini oshirish hamda zamonaviy AI laboratoriyalari, GPU infratuzilmasi va maxsus texnik resurslarni rivojlantirish zarur. Aniqlangan kamchiliklar tizimli xarakterga ega bo'lmagan, asosan rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan jihatlar bo'lib, ular ta'lim dasturining asosiy faoliyat yuritish imkoniyatiga jiddiy to'sqinlik qilmaydi. Umuman olganda, 60610500 – "Sun'iy intellekt" ta'lim dasturi bo'yicha mavjud holat belgilangan akkreditatsiya mezonlari va talablariga umumiy jihatdan mos keladi hamda ta'lim dasturini amalga oshirish uchun yetarli asos mavjud. Yakuniy baho: MUVOFIQ.

## 6. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA ANIQLANGAN KAMCHILIKLAR VA NOMUVOFIQLIKLAR

### Jiddiy kamchiliklar (akkreditatsiyaga to'sqinlik qiluvchi):

Ta'lim dasturini yo'lga qo'yish uchun to'sqinlik qiladigan jiddiy kamchiliklar aniqlanmadi

### Bartaraf etilishi lozim bo'lgan juz'iy kamchiliklar:

- ✓ Sun'iy intellekt yo'nalishiga xos zamonaviy moddiy-texnik infratuzilma – GPU serverlar, maxsus sun'iy intellekt laboratoriyalari va litsenziyalangan dasturiy platformalar – to'liq shakllantirilmagan hamda ayrim ko'rsatkichlar reja darajasida qolgan.
- ✓ Xalqaro ta'lim standartlari (ACM/IEEE, ECTS va boshqalar) bilan rasmiy solishtirma tahlil (benchmarking) hamda fanlar va o'quv natijalari o'rtasidagi moslik (mapping) matritsalarini yetarli darajada hujjatlashtirilmagan.
- ✓ Ta'lim dasturini ishlab chiqish va takomillashtirishda manfaatdor tomonlar (ish beruvchilar, talabalar, bitiruvchilar) ishtiroki hamda ular taklifi asosida kiritilgan o'zgarishlar aniq dalillar bilan yetarlicha hujjatlashtirilmagan.
- ✓ Inklyuziv ta'lim uchun binolarning moslashtirilishi, maxsus o'quv materiallari va moslashtirilgan axborot-kommunikatsiya vositalarining mavjudligi bo'yicha dalillar to'liq taqdim etilmagan.

## 7. TA'LIM DASTURINI SIFATLI TASHKIL ETISH BO'YICHA TAVSIYALAR

- ✓ Moddiy-texnik bazani, xususan zamonaviy sun'iy intellekt infratuzilmasini (GPU serverlar, maxsus laboratoriyalar, litsenziyalangan dasturiy platformalar) bosqichma-bosqich rivojlantirish va o'quv jarayonini real sanoat muhitiga yaqinlashtirish.
- ✓ Ta'lim dasturini xalqaro ta'lim standartlari (ACM/IEEE, ECTS) asosida benchmarkingdan o'tkazish hamda fanlar va dastur darajasidagi o'quv natijalari o'rtasidagi moslik matritsalarini ishlab chiqish.
- ✓ Sun'iy intellekt, mashinali o'qitish va ma'lumotlar tahlili yo'nalishlarida xalqaro hamda amaliy sanoat tajribasiga ega mutaxassislarni jalb etish va professor-o'qituvchilar malakasini muntazam oshirib borish.
- ✓ Loyiha asosidagi baholash, capstone loyihalar, amaliy case-study'lar va real sanoat muammolariga yo'naltirilgan topshiriqlar ulushini oshirish hamda manfaatdor tomonlar ishtirokini kuchaytirib, uni hujjatlashtirish.


## 8. TA'LIM DASTURI BO'YICHA YAKUNIY XULOSA

Baholash natijalariga ko'ra, 60610500 – "Sun'iy intellekt" ta'lim dasturi bo'yicha taqdim etilgan hujjatlar, o'quv-uslubiy materiallar, tashkiliy-boshqaruv mexanizmlari hamda mavjud infratuzilma kompleks tahlil qilindi. Ta'lim dasturining

tashkiliy-boshqaruv tizimi, ichki sifatni ta'minlash mexanizmlari, ta'lim dasturi mazmuni, o'quv jarayonini tashkil etish, talabalar faoliyatini qo'llab-quvvatlash, inson resurslari salohiyati hamda moddiy-texnik ta'minot holati belgilangan mezonlar asosida o'rganildi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur institutsional asoslar yaratilgan, strategik rivojlantirish rejalari ishlab chiqilgan hamda ichki sifatni monitoring qilish va takomillashtirish mexanizmlari yo'lga qo'yilgan. Ta'lim dasturi mazmuni davlat ta'lim standartlari va milliy malaka talablariga mos shakllantirilgan bo'lib, zamonaviy sun'iy intellekt yo'nalishidagi asosiy kompetensiyalarni qamrab oladi. O'quv jarayonida nazariy va amaliy komponentlar o'rtasida mantiqiy uzviylik ta'minlangan, talabalar uchun akademik va kasbiy rivojlanish imkoniyatlari yaratilgan. Shu bilan birga, xalqaro standartlar bilan moslikni hujjatlashtirish, fanlar va o'quv natijalari o'rtasidagi moslik tizimini kuchaytirish, manfaatdor tomonlar ishtirokini yanada aniq aks ettirish, sun'iy intellekt yo'nalishiga ixtisoslashgan professor-o'qituvchilar salohiyatini oshirish hamda zamonaviy sun'iy intellekt laboratoriyalari va GPU infratuzilmasini rivojlantirish zarur. Aniqlangan kamchiliklar tizimli xarakterga ega bo'lmagan, asosan rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan jihatlar bo'lib, ular ta'lim dasturining asosiy faoliyat yuritish imkoniyatiga jiddiy to'sqinlik qilmaydi. Umuman olganda, 60610500 – "Sun'iy intellekt" ta'lim dasturi bo'yicha mavjud holat belgilangan akkreditatsiya mezonlari va talablariga umumiy jihatdan mos keladi hamda ta'lim dasturini amalga oshirish uchun yetarli asos mavjud. Ekspert komissiyasi tomonidan ta'lim dasturi MUVOFIQ deb baholandi.

## 9. TA'LIM DASTURI BO'YICHA AKKREDITATSIYA KOMISSIYASI QARORI

|                                                  |                                |
|--------------------------------------------------|--------------------------------|
| <b>Akkreditatsiya komissiyasi qarori sanasi:</b> | 16.06.2026-yil                 |
| <b>Akkreditatsiya komissiyasi bayon soni:</b>    | 3-son                          |
| <b>Yakuniy qaror:</b>                            | <b>AKKREDITATSIYADAN O'TDI</b> |



+998 55 505 30 30



info@nqaae.uz  
www.nqaae.uz



@nqaaeuz



@nqaaeuzbot

